

March 2020

Innovation of university system in the field of scientific staff training in Europe and Uzbekistan: experience and problems

Usmonov Botir

Tashkent Chemical-Technological Institute, busmonov@hotmail.com

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/cce>

 Part of the [University Extension Commons](#)

Recommended Citation

Botir, Usmonov (2020) "Innovation of university system in the field of scientific staff training in Europe and Uzbekistan: experience and problems," *CHEMISTRY AND CHEMICAL ENGINEERING*: Vol. 2020 : No. 1 , Article 1.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/cce/vol2020/iss1/1>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in CHEMISTRY AND CHEMICAL ENGINEERING by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

INNOVATION OF UNIVERSITY SYSTEM IN THE FIELD OF SCIENTIFIC STAFF TRAINING IN EUROPE AND UZBEKISTAN: EXPERIENCE AND PROBLEMS

Botir USMONOV (busmonov@hotmail.com)
Tashkent Chemical-Technological Institute, Tashkent, Uzbekistan

The need to improve the system of doctoral studies in the Republic of Uzbekistan is dictated by the tasks of the present. In this article, the example of European and Uzbek universities, considered the features of the reforms in the administration of training for scientific personnel undertaken in the last decade in European countries. To solve the problems of the doctoral system, it is proposed to take a number of structural steps to improve the overall quality of specialists in Uzbekistan, to ensure its attractiveness and competitiveness.

Keywords: higher education, system for training of scientific personnel, "the new public management", degree, research

ИННОВАЦИИ В УНИВЕРСИТЕТСКОЙ СИСТЕМЕ ПО ПОДГОТОВКЕ НАУЧНЫХ КАДРОВ В ЕВРОПЕ И УЗБЕКИСТАНЕ: ОПЫТ И ПРОБЛЕМЫ

Ботир Шукуриллаевич УСМАНОВ (busmonov@hotmail.com)
Ташкентский химико-технологический институт, Ташкент, Узбекистан

Необходимость совершенствования системы докторантуры Республики Узбекистан диктуется задачами настоящего времени. На примере европейских и узбекских вузов были рассмотрены особенности реформирования системы подготовки научных кадров в европейских странах за последнее десятилетие. Для решения проблем докторской системы предлагается предпринять ряд структурных шагов для повышения общего качества специалистов в Узбекистане, обеспечения его привлекательности и конкурентоспособности.

Ключевые слова: высшее образование, система подготовки научных кадров, «новое государственное управление», ученая степень, научные исследования

YEVROPA VA O'ZBEKISTON ILMIIY-PEDAGOGIK KADRLAR TAYYORLASH TIZIMI: TAJRIBA VA MUAMMOLAR

Botir Shukurillaevich USMONOV (busmonov@hotmail.com)
Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Toshkent, O'zbekiston

O'zbekiston Respublikasida doktorantura tizimini takomillashtirish zarurati hozirgi zamon talablariga bog'liqdir. Evropa va O'zbekiston universitetlari misolida so'nggi o'n yillikda Evropa mamlakatlarida ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish xususiyatlari ko'rib chiqildi. Doktorlik tizimidagi muammolarni hal qilish uchun O'zbekistonda mutaxassislarining umumiy sifatini yaxshilash, uning jozibadorligi va raqobatdoshligini ta'minlash uchun bir qator tuzilmaviy choralarni ko'rish taklif etiladi.

Kalit so'zlar: oliy ma'lumot, ilmiy kadrlar tayyorlash tizimi, "yangi davlat boshqaruvi", ilmiy daraja, ilmiy tadqiqotlar

O'tgan asrning 90-yillari boshida barcha Yevropa davlatlari ulardagi universitetlarning (PhD) tadqiqotchilar tayyorlash rejaları o'zining dastlabki – asl tadqiqotlarni mustaqil bajara oladigan, yosh olimlarni tayyorlanishi ko'zda tutilgan maqsadlaridan ancha yiroq ekanligini ko'rsatib o'tishga majbur bo'lganlar. Ushbu aniq faktdan kelib chiqqan holda ko'plab Yevropa davlatlari mavjud holatni tuzatish maqsadida butun oliy ta'lim tizimi va (PhD) doktorlik rejalariga yangi boshqaruv me'yorlarini kiritish tashabbuslarni ilgari surdilar [1].

Aspirant va doktorantlarni tayyorlash rejalariga kiritilgan o'zgarishlar Yevropa davlatlari ko'pchiligining bu masalada yuzaki islohotlar bilan cheklanishiga qaramay qator salmoqli yutuqlarga erishishlarini ta'minladi.

YEVROPA DOKTORANTURA TIZIMI VA TUZILISHI

So'nggi uch o'n yillik davomida Yevropa oliy ta'lim tizimi tizimli darajadagi yirik o'zgarishlar qamrovidadir. Yevropa davlatlarining aksariyati "Bolonya jarayoni" nomi bilan mashhur oliy ta'lim islohotlariga

qo'shildilar. Shu bugungi kungacha bo'lgan tarixda o'ziga, davlat chegaralaridan qat'iy nazar, qator ko'plab davlat arboblari, siyosatchi va davlat xizmatchilari, o'qituvchi va talabalarni jalb etgan bunday islohotlar bo'lmagan.

"Bolonya jarayoni" oliy ta'limning keng qamrovli islohoti bo'ldi va oliy ta'limdagi turli darajadagi turli manfaatdor tomonlarga ko'plab o'zgarishlarni olib keldi. U siyosiy yechimdan, yuqoridan pastga yo'naltirilgan vertikal jarayondan boshlandi, qisqa muddatda akademik harakatga aylanib, odatdagidek islohot tarafdorlari hamda qarshilarni shakllantirib ulgurdi. Alohida ta'kidlash joizki "Bolonya jarayoni" Yevropadan tashqaridagi dunyoning boshqa turli mintaqa va hududlariga ham joriy etildi. "Bolonya jarayoni"ning asosiy maqsadlaridan biri bu oliy ta'limni jamiyat ehtiyojlariga ko'proq moslashtirilishida hamda Yevropa davlatlari oliy ta'limi tizimi tuzilishining bir biri bilan muvofiqlashtirilishidir.

"Bolonya jarayoni" OTMlarning Yevropa hamjamiyatining katta tarkibiy o'zgarishlarga tayyorlaydi va ularning bajarilishini

yengillashtirishga yo'naltirilgan, samaradorlikni yuksalishini ta'minlovchi talaba va ishchilarning ishga joylashishi va mobilligini oshirish kabi vazifalarni osonlashtiradi. Ayniqsa, talabaning yanada yaxshiroq professional rivojlanishiga zamin yaratishi bilan bog'liq maqsadi juda ahamiyatli jihatidir [2].

Yana bir e'tiborli jihati shundaki, mazkur islohot oliy ta'lim tizimi istiqboli uchun katta ulush qo'shgan, o'zining tajribasi bilan tizimning takomillashuvi hamda o'zgarishlarda ishtirok etuvchi ekspertlarni bir joyga jamlay oldi.

Dastlab, yoki yanayam to'g'rirog'i birinchi o'n yillikda tizim birinchi ikki bosqichga yo'naltirilgan oliy ta'lim: bakalavriat va magiistraturaga asos solindi. Doktorantura ilk bor siyosiy darajada 2003 yildagi vazirlarning Berlin kommyunikesida diqqat markazidan o'rin oldi, u dastlabki ikki bosqichning mantiqiy davomi sifatida e'tirof etildi. Bunday siyosiy yechimdan so'ng doktorantura ko'p yillar davomida universitetlar hayotining asosiy qismi, ya'ni universitet maqomi oluvchi yoki saqlab qoluvchilarga, faol ilmiy-tadqiqotchilikni ta'minlovchilarga asosiy mezon bo'lib qoladi. Doktorantura ta'lim tizimi va ilmiy-tadqiqotlar o'rtasida ko'prik ekanligini hech qachon unutmasligimiz kerak, qolaversa, aynan doktorantura sanoqli talabalar uchungina universitet tizimining oliy maqomdagi ta'limidir. Unda eng sara professorlar, tadqiqotchi va izlanuvchilar jamlangan, shuningdek u o'ziga xos "himoyalangan" va ilmiy hamjamiyatda, fan olamida yashaydi [3].

2005 yil, hozirda "Zaltsburg konferentsiyasi" nomi bilan mashhur anjuman tashkil etilgan, ushbu anjumandan so'ng doktorantura Yevropada sezilarli o'zgardi. Unda tizimni rivojlantirish va yanada takomillashtirish maqsadida mavjud qator o'zgarishlar va ehtiyojlar yoritib berilgan. Zaltsburg anjumani "Bolonya jarayoni" va Yevropa universitetlari assotsiatsiyasi (EAU - Yevropeyskaya assotsiatsiya universitetov) hamkorligida tashkil etilgan hamda faqat doktorantura masalalariga bag'ishlangan. Uning asosiy natijalari bu "zaltsburg printsiplari", ya'ni hozirgacha doktorantura doirasida ishlovchi va izlanuvchilar uchun muxim hujjat bo'lib qolmoqda. Jumladan, universitet rahbariyati va boshqa manfaatdor tomonlar, ilmiy va ilmdan tashqarida doktorantura tizimi siyosatini yurituvchi, uning yaxshilanishiga qiziqqan mansabdor shaxslarga qaratilgan me'yoriy xujjat sifatida e'tirof etilgan.

Ko'plab o'zgarishlar joriy etilishidan qat'iy nazar, doktoranturaga oid munozaralar hanuzgacha to'xtagani yo'q, yechimini kutayotgan yangi muammolar mavjud. Davlat boshqaruvi organlari,

olimlar va universitet rahbarlari jamiyat yangi talablarga javoban qanday tayyorlanish kerak, universitetlar talablarga qanday munosabatda bo'lishi lozim degan savollar hamon kun tartibida mavjud [4].

Yevropa universitetlari assotsiatsiyasi (EUA) o'zida 900 ga yaqin a'zoni jamlagan Zaltsburg anjumanini tashkil etgan. U hamkor va universitetlarning yetakchi bir tashkiloti sifatida Zaltsburg anjumanidan keyin bir necha yil o'tib, doktorantura bo'yicha Kengash (SPD YeAU - Sovet po doktoranture Yevropeyskoy assotsiatsii universitetov) tashkil etdi. Hozirda SPD Yevropaning 250 ga yaqin tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi universitetlarini jamlagan. SPD o'z a'zolari bilan hamnafas, doktorantura bilan bog'liq ko'plab turli tadbirlar tashkilotchisi, oliy ta'limdan keyingi ta'lim barcha manfaatdor ishtirokchilari bilan muntazam aloqada va doktorantura siyosatiga oid tavsiyalarni ishlab chiqadi. 2010 yilda Zaltsburg tavsiyalari II deb nomlanuvchi yana bir hujjat qabul qilingan. Zaltsburg printsiplari va yangi hujjat "Taking Salzburg Forward" (2016 y.) bilan birga ushbu uchta hujjatlar har bir institutsional darajada faoliyat olib boruvchi doktoranturaga mas'ul shaxs hamda tashkilot uchun strategik harakatlari yoki metodlarini belgilovchi hujjatdir [5].

Yevropada doktorantura islohoti "sokin revolyutsiya" tarzida qabul qilindi, u ko'plab hududlarni qamrab oldi, universitetlarni va ko'plab ushbu jarayonlar ishtirokchilarini befarq qoldirmadi. O'z o'zidan mazkur jarayonlarda institutlar yangicha rolga ehtiyoj shakllandi; ilmiy rahbarlikning ahamiyati har doimgidek saqlanib qoldi, lekin endi u o'zgacha qabul qilinadigan va talqin etiladigan bo'ldi; universitetlarning avtonomlik omili va mos rahbarligi hamda tadqiqotlarning yetarli darajada moliyalashtirilishi ahamiyati oshdi. Universitetlarga doktoranturaning yangi tuzilmasi va takomillashtirilgan universitet ehtiyojlariga moslashib xizmat qiluvchi yangi tipdagi ixtisoslashgan ma'muriy xizmatchilarning juda e'zozlanishi bilan bog'liq omillar ko'zga tashlana boshladi. Bundan tashqari, Yevropada doktoranturasi doirasida yuz berayotgan o'zgarishlar global tashabbusga aylandi.

Doktoranturadagi mavjud ta'lim shakli tizimga juda mosdir, chunki uning yakuni – bu shunchaki oddiygina yaxshi doktorlik dissertatsiyasi emas, balki yangi fan doktoridir.

Yangi fan doktori – bu "falsafa doktori" daraja nomi bilan ataluvchi, tadqiqotchilikning, akademik doiralarning, zamonaviy hamjamiyat turli tuzilmalarining, sohaning turlicha kasbiy amaldorlik maqomiga mos bilimlariga asoslangan oliy ilmiy daraja egasidir.

Tadqiqotchilarni tayyorlash tizimi islohoti

nechog'lik ahamiyatligi ko'p jihatdan iqtisodiyot OTMlari tadqiqot dasturlari va kafedralar, ularning olim yoki boshlang'ich bosqichdagi tadqiqotchilari ish faoliyati darajasiga asoslanadi. Misol uchun, tadqiqotchi va izlanuvchilar Yevropa iqtisodchilari ilmiy-tadqiqotlariga o'zlarining salmoqli ulushlarini qo'shmoqdalar, ammo Yevropa tadqiqotchilik kengashi (2008) tadqiqot grantlari taqsimoti ko'rsatishicha yosh nemis tadqiqotchilari salohiyatining baholanishi ilgariydek boshqa davlat tadqiqotchilariga nisbatan kamroqdir.

Raqobatbardosh doktorant va tadqiqotchilarni tayyorlay olmaslik akademik maqomni yo'qotishga, shuningdek, masalan nemis kafedralari hayotiylik faoliyatiga havf tug'diradi [9], chunki ushbu jarayonlarni muvofiqlashtiruvchi fan Kengashi (Wissenschaftsrat) mustaqil tadqiqotlar olib bormayotgan kafedra va fakultetlarda ilmiy darajalar berishni cheklash tavsiyasini kiritgan.

Germaniyada, xuddi sobiq SSSRdagi kabi ikki bosqichli tizim mavjud: fan (promotion) nomzodi va fan (habilitation) doktori. Lekin ham nomzod, ham texnika fanlari doktoriga mos va professor lavozimini egallash imkoniyatini beruvchi doktor-muhandis darajasi mavjud. Professor lavozimlari juda kamaymoqda, uni egallashga ishtiyoqmandlar soni esa ortib bormoqda. Shu munosabat bilan so'nggi vaqtda vaqtinchalik professor lavozimi kiritilgan, bu lavozim besh yilga yarim baravar kam maosh belgilash bilan beriladi. Germaniyada professor lavozimida ishlash muddati cheklanmagan (nafaqaga qadar, nafaqaga chiqish ixtiyoriy emas, balki majburiydir, chunki mablag' nuqtayi nazaridan bu bir xil, lekin ma'ruzalar o'qish majburiyati yo'q).

Yevropaning boshqa yana bir mamlakati, Buyuk britaniyada esa doktorantura tizimi so'nggi 25 yilda tubdan o'zgardi. Jumladan, quyidagi o'zgarishni qamrab oldi: tadqiqotchi ilmiy maslahatchi bilan shaxsiy va individual munosabatlar bilangina chegaralangan qo'llab-quvvatlashga ega "ustoz-shogird" modeli o'zgardi. Hozirda tadqiqotchi maxsus va texnik ilmiy-tadqiqotchilik ko'nikmalariga ega universitet hodimlari, boshqa ilmiy maslahatchilardan tashkil topgan guruh hamda talabalar tomonidan qo'llab-quvvatlanadilar. Bitta fan yoki ixtisoslikka bog'liqlik bir necha fan yoki fanlararo yondashuv bilan almashdi, boshqa tadqiqotchilarga bog'lanish, etiket, sog'liq va xavfsizlik va nihoyat daraja olish ko'rsatkichlari o'sdi.

Buyuk britaniya oliy ta'limi tizimida yangilik bu Graduate School tizimidir, unda tadqiqotchi doktorlik dissertatsiyasining tayyorgarligi va himoyasi hamda oliy ta'lim sektoridan tashqarida martabaga erishishi ko'zda tutilgan. Odatda Graduate Schoolda talaba(bizning misolimizda

doktorant)larning o'z fani yoki ixtisosligidan tashqari fanlararo yondashuvi va qarashlari rag'batlantiriladi, shu tariqa uning tadqiqot ob'ektiga maqsadli va ijodiy yondashuvi qo'llab-quvvatlanadi. Shuningdek, Graduate school o'qituvchi va ilmiy maslahatchilarning kasbiy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish markazi ham bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa mazkur tizimda tadqiqotchilarning butun Yevropadagi universitetlar va boshqa hamkorlar bilan aloqalarda mobilligi oshadi. Tadqiqotchilar izlanishlarining yuqori sifatligini ta'minlash, bebaho tajribaga erishishlari uchun tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash Dasturi – tadqiqot metodlariga ko'ra modullar ko'rinishida ta'assis etilgan, tadqiqotlar bo'yicha keng ko'lami malaka treninglari, qator yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot va kasbiy ko'nikmalar seminarlari hamda ko'p profilli anjumanlar o'tkaziladi.

Mazkur tayyorgarlik Dasturi "falsafa doktori" darajasini oluvchi ilmiy tadqiqotchini qo'llab-quvvatlashga, yuqori darajada tadqiqotchilik ko'nikmalarini o'rgatish, ularning kelgusida yuqori martabaga erishishiga yo'naltirilgan.

Keyingi misol, bu Ispaniya davlatidagi holat – Granadi universiteti misolida oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarining ochilishi tajribasini ko'rib chiqamiz. Ushbu universitet Dasturlar guruhi doirasida mavzular yondashuvi printsipiga ko'ra doktoranturaning uchta yo'nalishini ochishni maqsad qilgan:

- tibbiyot fanlari ixtisosliklari bo'yicha doktorantura;
- texnika va texnologiyalar fanlari doktoranturasini;
- gumanitar, ijtimoiy fanlar va huquq yo'nalishidagi doktorantura.

Ushbu xulosa doktorantura Dasturining katta potentsiali va universitetlardagi mavjud tadqiqot guruhlariga asoslandi, bu esa har bir muassasada baholash kriteriyalariga ko'ra katta hajmdagi tadqiqotchi va ilmiy maslahatchilarning yirik Dasturini shakllantirish imkoniyatini yaratdi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarini ochish uchun universitet ishni mavjud doktorantura dasturlarining tahlilidan boshladi, bundan maqsad tadqiqotchilik va ilmiy maslahatlarda o'zini yaxshi ko'rsatgan faol tadqiqot guruhlarini yo'nalishlarini aniqlash edi. Dasturga kiritilishiga moslikni baholovchi asosiy mezon bu ko'zga ko'ringan tadqiqot guruhlarining (referativ jurnallardagi nashrlar, ilmiy-tadqiqot loyihalari, patentlar va h.k.) doktorantura dasturi talablariga mos tadqiqotchi va ilmiy maslahatchilarning mezon ko'rsatkichlari bo'ldi.

Mavzuli yondashuv printsipiga ko'ra keng bilimlar yo'nalishlarida doktorantura dasturlari institutlari faoliyati yo'lga qo'yildi va ularni tayyorgarlik darajasi yuqori bo'lgan ishonchli

mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash o'ta ahamiyatli deb topildi. Doktorantura dasturi va institutlari uchun doktoranturaning turli qonun qoidalari bilan bog'liq bilimlarga ega ma'muriy boshqaruv tarkibi, maxsus o'quv-metodik va ilmiy-tadqiqot markazlari, tadqiqotchilar uchun bosqich va jarayonlardan tashqari o'ta lozim grantlar olish imkoniyati hamda mobillik dasturlari, oxir oqibatda doktorlik dissertatsiyasi himoyasi bilan tugashi kerak.

Shu jihatdan, har bir oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutining alohida tuzilmasiga nisbatan yagona maxsus tarkibga ega ma'muriy tuzilma bo'lishi samarali deb qaralgan. Xulosa qilib aytganda, har biri akademik jihatdan o'z mohiyatiga, yo'nalishiga va mezonlariga ega bo'lgan uchta oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarining ma'muriy tuzilmasi bitta bo'lgan.

O'ZBEKISTON DOKTORANTURASINING HOLATI – TIZIMNING AFZALLIKLARI

2012 yil so'ngiga qadar O'zbekiston doktorantura tizimi ikki bosqichli sobiq sovet oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi ta'siri ostida bo'ldi: "fan nomzodi" darajasini olish uchun aspiranturada o'qish va "fan doktori" darajasini olish uchun esa doktoranturada o'qish shart edi.

Butunjahon banki hisobotida yozilishicha "Sovet Ittifoqining markazlashgan rejali iqtisodiyoti bir qismi bo'lgan O'zbekiston oliy ta'lim tizimining universitet fan dasturlari, bitiruvchilar va doktorantura sifati kabi barcha jabhalari Moskva nazorati ostida faoliyat ko'rsatgan" [13]. Mustaqillikka erishgandan so'ng, holatni o'zgartirish maqsadida O'zbekiston hukumati qator islohotlarni o'tkazishga kirishdi. O'zbekiston oliy ta'limi sektorining islohoti uzluksiz jarayon bo'lib, 1997 yilda Ta'lim to'g'risidagi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi bilan boshlangan.

Doktoranturani isloh qilish masalasiga esa nisbatan keyinroq diqqat e'tibor qaratildi. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim bilan bog'liq O'zbekiston qonunchiligi tahlillar ko'rsatishicha islohotlar 2013 va 2017 yillarga to'g'ri keladi. Islohotlar boshida oldingi sobiq sovet tizimining ikki bosqichli oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimidan tadqiqotchilikning fan doktori ilmiy darajasini olish bilan bog'liq bir bosqichli tizimga, keyinroq 2017 yildagi qonunchilikka ko'ra fan doktori ilmiy darajasini hozirda falsafa doktori ilmiy darajasiga dissertatsiya himoyasidan keyingina

doktoranturada o'qish bilan erishish tartibi kiritildi.

Islohot natijasi o'laroq hozirgi talaba oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturiga ko'ra (ham eski, ham yangi oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimida) bir xil fan doktori ilmiy darajasiga erishishi mumkin.

Yangi tizimga o'tishdan asosiy maqsad, boshqalar qatorida tadqiqotchilikda doktorlik darajasini berish bilan yoshlarni rag'batlantirishdadir. Ushbu maqsadga erishish uchun O'zbekiston hukumati tadqiqotchilarni oldingi tizimdagiga nisbatan yuqoriroq qiymatda taqdirlashni ko'zda tutgan. Nisbatan yuqori ish haqidan (O'zbekistondagi o'rtacha ish haqiga nisbatan) tashqari tadqiqotchi qo'shimcha ustunliklarga ega bo'ladi. Shuningdek hukumat tadqiqotlar o'tkazishni yaxshilash va shart-sharoitlarini takomillashtirish maqsadida tadqiqotchilar uchun talabalar shaharchalarini yaratib, mehnat sharoitlarini yaxshilashga investitsiyalar kiritishni rejalashtirgan. Geografik joylashuviga ko'ra O'zbekiston oliy ta'limi universitetlarining aksariyati mamlakat poytaxti Toshkent shahridadir.

Hukumat islohot ishtirokchilari bo'lmish ilmiy-pedagogik kadrlar shijoatini qonuniy qo'llab-quvvatlash maqsadida tizimni isloh qilinishiga ko'plab zahiralarni yo'naltirmoqda. O'zbekiston hukumati ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati va innovatsiyalarni oliy ta'lim tizimini takomillashtirilishining eng qimmatli va ahamiyatli usuli deb biladi. Qolaversa u ishlab chiqarish sektorlari bilan shartnomaviy asosda yaqin hamkorlikni ta'minlashini belgilaydi. Bu – birinchi va eng ahamiyatli tizimni takomillashtirishga yo'naltirilgan asosiy qadam, O'zbekiston hukumati istiqbol rejalaridagi qator yangilanishlarda O'zbekiston oliy ta'lim tizimi doktoranturasini Yevropa tendentsiyalariga yaqinlashtirish bosqichlari ham ko'zda tutilgan.

Yuqorida keltirilgan manfaatdor tomonlarning qat'iy pozitsiyasi doktoranturani takomillashtirishga yo'naltirilgan har qanday tashabbusning qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasining doktorantura tizimi hozirda bo'lajak islohotlar va doktorantura sifatini ta'minlanishi uchun yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmoqda. Shunga qaramay O'zbekiston Respublikasi doktorantura tizimi takomillashtirilishi yo'lida aynan sistemaning mavjud salohiyatidan samarali foydalanish va shu kabi qator jihatlari bilan bog'liq chaqiriqlar ham mavjud.

O'zbekiston Respublikasi doktorantura

tizimi takomillashtirilishi bilan bog'liq chaqiriqlar. O'zbekiston oliy ta'lim universitetlari doktorantura tizimi yuqori individuallashtirilgan, barcha jarayonlar esa bir kishi – ilmiy maslahatchi rahbarligida doktorlik dissertatsiyasi ustida ishlashga yo'naltirilgan. Doktoranturaga qabul qilingan va kirish imtihonlarini topshirgan tadqiqotchi ilmiy maslahatchisi bilan OTM Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan doktorlik dissertatsiyasini tayyorlashning individual rejasini ishlab chiqadilar. Tadqiqotchilikning birinchi yilida ilmiy maslahatchi va tadqiqotchi tanlangan ixtisoslik nazariy va metodologik jihatlari, fan tadqiqoti nazariy asoslari va metodologiyasi singdirilgan o'quv dasturni ishlab chiqadilar. Keyingi yillarda tadqiqotchilar O'zbekiston Respublikasi OAK tegishli o'quv fanlari kiritilgan o'quv rejasiga ko'ra ta'lim oladilar. Doktorantura davomiyligi uch yil, yana bir yilga cho'zdirish imkoniyati muddatida tadqiqotchi o'z dissertatsiyasini himoya qilishini ham ko'zda tutgan.

Ilg'or amaliyot. Ko'pgina holatlarda Yevropada doktorantura ilmiy yo'naltirilgan va ilmiy hajmdor tuzilmalarga asoslangan dasturlarga kiritib, doktoranturaning aniq ko'rinishida, tadqiqotchining ilmiy daraja olishga bo'lgan intilishlari rag'batlantiriladigan, qo'llab-quvvatlanadigan muhit mavjud universitetlar va OTMlararo ta'lim muassasalari yoki oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarida tashkil etilgan. Asosiy yetakchi tashkiliy printsip tadqiqotlar o'tkazishga tayyorgarlik tadqiqotlar yordamidadir.

Doktorantura dasturlarining tuzilishi – bu ixtisoslashgan /mavzuli, individual, tasdiqlangan va ilmiy maslahatchi rahbarligidagi tadqiqotchining shaxsiy va kasbiy malaka ko'nikmalarni rivojlantiruvchi turli qo'shimcha kurslar/ yoki maxsus bilimlarni majburiy o'qitish bilan rivojlantirishda ishlatiladigan, tadqiqotchilikga urg'u berilgan tezkor o'quv dasturlari.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlari (va/yoki Graduate school) tadqiqotchining boshqa tadqiqotchilar bilan keng integratsiyalashuvi muhitini yaratadi hamda jamiyat va iqtisodiyot bilan bog'laydi. Ayni vaqtda doktoranturaning yakuniy mahsuloti sifatiga mas'uliyatni jarayonning barcha manfaatdorlari, ya'ni tadqiqotchi, ilmiy maslahatchi va muassasa o'rtasida taqsimlaydi.

Doktoranturaning bunday tuzilishidan maqsad tanlangan ilmiy yo'nalishda yangi va kerakli bilimlarni shakllantirishga tadqiqotchilar va ekspertlarni o'qitish hamda

ushbu bilimlardan foydalanishni ta'minlashdir.

Kelgusi harakatlar. O'zbekistonda hozirda mavjud doktoranturaning tashkiliy shakli tadqiqotchi va ilmiy maslahatchini, doktoranturani qo'llab-quvvatlovchi uyg'unlashgan tashkiliy tuzilmaga ega emas. Shuningdek, tadqiqotchilar faoliyati keng mahalliy va xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan juda yaxshi integratsiyalashmagan. Dissertatsiya sifatining mas'uliyati faqat ilmiy maslahatchi va tadqiqotchidadir, ayni damda muassasa nomzod va ilmiy maslahatchi uchun ayrim tadqiqot ishlari bilan bog'liq bo'lmagan masalalarda ham biror-bir amaliy yordam ko'rsatmaydi.

O'zbekiston OTMlari uchun doktorantura tuzilmasini, ya'ni Yevropa doktoranturasidagi kabi maxsus tashkiliy tuzilmalar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturlarini ta'sis etish foydadan holi bo'lmas edi.

Qo'llab-quvvatlovchi tuzilmalar ehtiyoj, zahiralari va har bir OTM ilmiy salohiyatiga qarab bir xil printsipda moslashtirilishi, tadqiqot jarayonlarida ilmiy maslahatchi va tadqiqotchiga tashkiliy jihatdan ko'maklashishi hamda dissertatsiyaning yozilishida shaxsiy va kasbiy ko'nikmalarni berishi kerak.

Bu kabi qo'llab-quvvatlovchi doktorantura tuzilmasi nafaqat bir kishi uchun, balki butun tizim uchun ham manfaatlidir, qolaversa tashkiliy tuzilma egiluvchan va sozlanuvchan bo'lib, O'zbekistondagi aniq bir OTM yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi (ITM)da ham qo'llanilishi mumkin. Bir vaqtning o'zida oliy ta'limdan keyingi ta'limning bir qator institut va universitetlarini jamlagan doktorantura dasturini ochish, unda katta hajmdagi tadqiqotchilar, ilmiy maslahatchilar va ilmiy resurslarni jamlash mumkin.

TADQIQOTLARNING AMALIYOTDA QO'LLANISHI VA BIZNES HAMDA ISHLAB CHIQRISH SEKTORLARI BILAN MUNOSABAT

Mavjud holat. O'zbekistonda dissertatsiya mavzusini tasdiqlash va himoyasi mezoni, bu ish natijasining fan yoki biznesda qo'llanishidir. Qo'llanish bilan bog'liq xulosa OTM rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Bu tadqiqotchining o'z tadqiqoti natijalarini jamiyat dolzarb muammolari yechishga, iqtisodiy yoki siyosiy masalalarga bag'ishlanganligi borasida shartli kafolat berishidir. Universitet va ishlab chiqarish aloqalarini mustahkamlash maqsadi OTM va sanoatning ma'lum yo'nalishida (masalan, asosan neftni qayta

ishlash va avtomobilsozlik) hamkorlik aloqalarini o'rnatishdir.

Ilg'or amaliyot. Tadqiqotning iqtisodiyotda qo'llanishi Yevropa OTMlari faoliyatida katta ahamiyat kasb etmoqda – universitet oldiga innovatsion iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuch bo'lish vazifasi qo'yilgan. OTM va iqtisodiy sektor hamkorligi jadallashadi hamda rag'batlantiriladi, shuningdek bu OTM tushumlari asosiy qismini shakllanishini ta'minlaydi. Bundan tashqari doktorlik tadqiqotlari natijasining jamiyat uchun foydasiga alohida urg'u beriladi, qolaversa bu oliy ta'limdan keyingi ta'limning asosiy hujjatlarida ham o'z aksini topgan, Yevropa OTMlari tadqiqot natijalari jamiyat qatlamlarida keng ishlatilishi bilan bog'liq yuqoridagi kabi shartli kafolatlarni talab etmaydi. Buning o'rniga, jamiyat dolzarb muammolarini hal qilishi yoki qilmasligidan qat'iy nazar tadqiqotchilarga mavzu tanlashda erkinlik berilgan.

Ayrim hollarda bu ishga o'zgacha yondoshilgan, masalan, sanoat doktoranturasida doktorlik darajasini olishning o'ziga xos iqtisodiy sektor bilan bog'liq usuli namoyon bo'ladi, bunda doktorlik dissertatsiyasi mavzusi sanoatning aniq muammosiga yo'naltirilgan ma'lum bir salmoqli yechimga bag'ishlanadi. Ushbu holatda ham sanoatning talablari o'ta yuqori bo'lib, har doim ham kutilayotgan tezkor yechimni olish imkoniyati doim ham bo'lmasligi mumkin.

Tajribalar ko'rsatishicha doktorantura (va butun oliy ta'lim) tadqiqotlarning amaliyotda qo'llanishiga ko'ra har qanday talablardan holi bo'lishi, ma'lum mavzuni tanlash, shaxsiy qiziqish va intilishlar bilan bog'liq akademik erkinlikning cheklanishidan holi bo'lishi kerak. Gumanitar fanlar, umumfanlar yoki san'atdagi tadqiqotlarda ananaviy "qo'llanilish" kategoriyasini "joylashtirish" anchagina murakkab. Bunday hollarda tadqiqot natijalarining zamonaviy ijtimoiy, iqtisodiy yoki siyosiy muammolarga ishlatilishi bilan bog'liq shartli kafolatlar o'rniga tadqiqotchidan ishning nazariy, amaliy ahamiyati va qo'shgan xissasini baholash bo'ladi, lekin bu ham ta'limning yakunlanishi yoki aynan shu mavzuning olinishini shartlamaydi.

Aks holda bu ham doktorant va ilmiy maslahatchi faoliyatida keraksiz to'siq bo'lib, ma'lum ortiqcha yondashuvlarni talab etuvchi bo'shliq bo'lib qoladi.

O'zbekiston OTMlari ishlab chiqarish bilan faol hamkorlik pozitsiyasida bo'lsada, doktorantura, ya'ni oliy ta'limdan keyingi ta'limning ishlab chiqarish biznes-sektori bilan aloqalariga endigina kirishilmoqda va bu yaqin

kelajakda tubdan o'zgarishi muqarrar.

Doktoranturaning mavjud bugungi tizimi noakademik sektor bilan hamkorlikka tayyorlanishi lozim. Tadqiqot natijalarining qo'llanishidagi shartli talablar ishlab chiqarishning faol doiralari bilan to'laqonli hamkorlik o'rnatish uchun albatta yetarli emas. Maqsadga erishish uchun o'zgacha yondashuv talab etiladi, bunda oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimiga iqtisodiyotning turli manfaatdor sektorlari vakillari ishtirokini ta'minlash, hamkorlikda tadqiqotlar loyihalari olib borish, maslahatlar berish bilan bog'liq hamkorlikdagi ilmiy rahbarlik, qo'llab-quvvatlash xizmatlarini ko'rsatish, kasbiy o'sishni ta'minlash va texnologiyalarni berish tuzilmalarini ochish.

Yevropada "davlat boshqaruvini takomillashtirish" choralari va – uning bir qismi – oliy ta'limda ma'muriy islohotlar asosiy maqsadi bu bozor raqobatini boshqarishni kengaytirish va jamoatchilik tashkilotlariga mustaqillikni berish bilan davlat ishtirokini kamaytirishdir [11].

Tadqiqotchilar tayyorlash tizimiga yangi davlat boshqaruvi instrumentlari ta'sirini baholash mavjud ilmiy nashrlarda juda kam yoritilgan.

Umuman olganda 1980-yillar umumiy boshqaruv modeli Yevropa mintaqasidagi ko'plab universitetlarda akademik o'z-o'zini boshqarish va muvofiqlashtirish hamda davlat tomonidan yuqori darajada nazorat qilishni o'z ichiga olgan. O'sha paytlardan boshlangan boshqaruv bilan bog'liq yangi tashabbuslar davlat tomonidan muvofiqlashtirilishini cheklab va bozor munosabatlari talablariga mos elementlarni faol joriy etishni taqozo etmoqda [12]. Ushbu tendentsiya ichki ishlar va boshqaruv ierarxiyasida katta erkinlikka ega avtonom universitetlar raqobatbardoshdir degan qarashlarga tayanadi.

Makrodarajada oliy ta'lim tizimining tahlili turli mamlakatlar boshqaruvidagi tushunishga imkon yaratadi. Clark [6], masalan, boshqaruvni uch turdagi aspektlar koordinatsiyasida differentsiya qilish mumkin: bozor mexanizmlari; davlat koordinatsiyasi yoki akademik oligarxiya. Mos holda Vught [7] boshqaruv tizimini ikki o'lchamli model, davlat nazorati va davlat kuzatuv tarzida tasniflagan. Lekin McDaniel [8], oliy ta'lim muassasalarini boshqaruv turli mamlakatlar darajasidagi farq tarzida to'xtab qolishi mumkin emas, balki har bir aniq tashkilot darajasida yanada chuqurlashishi, tashkiliy amaliyot va qurol bo'lishi kerak. So'nggi

vaqtlardagi de Boer [11]ning oliy ta'lim tizimida boshqarish stilini kategorizatsiyalashtirish bilan bog'liq taklifi yanada nozikroq usuldir, besh asosiy o'lchamdan kelib chiqqan holda: raqobat, akademik o'z-o'zini boshqaruv, taa'assischilar va manfaatli tomonidan nazorat, davlat muvofiqashtiruv va iqtisodiy o'z-o'zini boshqaruv.

Yangi davlat boshqaruvi (YaDB) va boshqaruvning an'anaviy modellari asosida har bir katta aniqlikga ega bo'lmagan dixotomik tasniflash bilan "past", "yuqori ko'rsatkich" kabi boshqaruv me'yorlarini qarama-qarshi qo'yish, Schimank [11]da ikki xil universitetlarni boshqarish ideal tipini aniqlash.

Universitetlarning "takomillashtirilgan" yangi boshqaruvi iqtisodiy faoliyat doirasida yuqori raqobatni, akademik o'z-o'zini boshqarish quyi darajasini, xissadorlar va manfaatli tomonlar ishtirokini, quyi darajadagi davlat boshqaruvini, yuqori darajadagi o'z-o'zini boshqarishni birlashtiradi. "Takomillashtirilgan" an'anaviy boshqaruv modeli besh o'lchovli boshqarish har birida to'g'ri qarama-qarshi tasniflarga ega.

Lekin juda katta tajribaga ega davlatlar YaDB, jumladan, Buyukbritaniya va Niderlandiya ham "takomillashtirilgan" YaDBda ko'p narsaga erishganlari yo'q. Germaniya va Avstriya kabi mamlakatlarda esa hozirda YaDBning ayrim jihatlarga ko'zga tashlanadi. Bu ham bo'lsa tadqiqotchilarni tayyorlash tizimining konstruktiv tuzilishida, Schimank [11].

O'zbekiston doktoranturasining hozirgi holati ikki bosqichli eski markazlashgan oliy ta'limdan keyingi ta'lim va hali to'la amaliyotga kirmagan, shartli tarzda namunaviy Yevropa modeli o'rtasidadir. So'nggi bir necha yilda O'zbekistondagi doktorantura tizimiga g'arb tajribasidan kelib chiqqan holda Yevropa va Amerika doktoranturasining bir necha elementlari kiritildi. Natijada hozirgi tizim, ya'ni eski elementlar (masalan, markazlashgan yagona baholash va qabul tartibi, mavzu tanlash tartibi, amaliy ahamiyatlilik, nashrlar sonining ko'pligi kabi yuqoridan rag'batlantiriluvchi omillar) va yangi elementlar (masalan, bir bosqichli yo'nalish va o'qishning cheklangan muddati uch yilgacha).

O'zbekistonda doktorantura (yangi) tizimining roli, ahamiyati va maqsadga yo'naltirilgan baholash kriteriyalarini to'liq tushunilishini ta'minlash talab etiladi. 2017 yilda boshlangan maqsadli va samarali

islohotlar O'zbekiston doktoranturasini ko'plab ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllangan Yevropa doktoranturasi bilan uyg'unlashuvini ta'minlamoqda.

Doktoranturaning Yevropa tizimi hozirda boshqa davlat va universitetlararo nisbatan mavjud siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillardan boshlangan o'ziga xosliklar muhiti va turli kompleks ta'sirlarda shakllangandir. Bu universitetlarga qo'yilayotgan (hozirda ham talab etilayotgan) Yevropaning globallashtirish dunyosida bilimlarning paydo bo'lishi va o'zgarishi, iqtisodiyot talablari, globalizatsiya kuchlari, ega asosiysi, siyosiy qarorlar bilan bog'liq murakkab yangi talablarga institutsional javoblar natijasidir. O'zining yangi maqomiga moslashish uchun Yevropa doktorantura tizimi an'anaviy tizimda mavjud bo'lmagan tadqiqotchilarga yordamchi xizmat ko'rsatish turlari, tadqiqotchilarni shaxsiy va kasbiy rivojlanishi, ularning mobilligini, oliy ta'limdan keyingi ta'lim sifati va natijalari uchun institutsional mas'uliyatni tushunishga yo'naltirilgan qator yangi innovatsion elementlarni kiritdi. Shu tariqa so'nggi o'n-o'n besh yilda Yevropa doktorantura tizimi mazkur muhitga moslashgan, o'zaro hamkor va bir-biriga bog'liq elementlardan tashkil topgan tarzida shakllandi.

O'zbekistonning tarixiy va iqtisodiy rivojlanish traektoriyasi G'arbiy Yevropa davlatlarinikidan o'zgachaligi tufayli Yevropa doktorantura tizimiga o'tish jarayonlarda eski va yangi tizim orasida qarama-qarshiliklar kelib chiqishi muqarrarligini e'tiborga olishni talab etadi. Ammo eng asosiysi jamiyatda doktoranturaning roli va ahamiyatini tushunish va e'tirof etish muhimdir. O'zbekistonning doktoranturani takomillashtirishga yo'naltirilgan harakatlarida Yevropa tuzilmasi doktorlik ilmiy darajasini olish bilan bog'liq uchinchi bosqichdagi oliy ta'limdan keyingi 3-4 yillik o'qish emas, balki yanada keng qamrovliligi e'tiborga olinmagan. Doktoranturaning bugungi kundagi roli faqat ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash emas balki yanada kengroq ijtimoiy mas'ullikdadir. Bizning tasavvurimizda doktoranturaning yangi tizimi eski tizim ayrim elementlarini o'zida qoldirgan va boshqa tizimlar elementlarini (asosan AQSh va Yevropadan) o'zida mujassamlashtirgandir. Aynan ushbu holat doktoranturaning progressiv elementlari va an'anaviy elementlarining qarama-qarshiligini keltirib chiqarmoqda, bu o'z navbatida tizimni takomillashtirish hamda yuksaltirish jarayonlarini susaytirmoqda. Qolaversa, bu

doktorantura tizimi uchun yangi muammolarni yaratmoqda. Masalan, doktoranturaga kiruvchi nomzodlarning magistraturada yetarli tayyorgarligi ta'minlanmaganligi uchun ilmiy tayyorgarlik darajasining pastligi, yoki, boshqa jihatdan qaragandagi holat tadqiqotlarni tugatish muddatida cheklangan vaqtga nisbatan nashr sonlarining ko'pligi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, doktorantura tizimi muammolarini bartaraf etish uchun O'zbekistonda umumiy sifatni yaxshilanishiga, tizimning jozibadorligi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi qator tuzilmali qadamlarni tashlash maqsadlidir.

Ushbu qadamlar quyidagilarni jamlaydi, lekin cheklamaydi:

1. Ta'lim tizimini ochish va qabulda tadqiqotchilar soni oshib ketishiga ruhsat berish, ayni vaqtda qabul kriteriyalari va baholash mezonlarining qabul qilingan talabgorlar yuqori sifatligini kafolatlashi;
2. Tarmoqlashgan doktorantura dasturlari asosida rahbatlantiruvchi ilmiy muhitga ega, masalan, oliy ta'limdan keyingi ta'lim yoki shunga o'xshash tashkiliy tuzilmalardan tashkil topgan tizimga o'tish;
3. Tadqiqotchilar o'quv dasturlarida maqolalar chop ettirilishi samaradorligini oshirish uchun onlayn bazalar bilan tanishish va ular bilan ishlashni ko'zda tutish;
4. Shuningdek, tadqiqotchilarga cheklov emas, balki qo'shimcha ustunlik yaratuvchi, dastur tarkibiy qismi bo'lgan OTM tomonidan tashkil etiladigan ingliz tilida ilmiy maqolalar tayyorlash, maxsus kurslarda ishtirok etishlariga imkoniyat yaratish;
5. Tadqiqotchilarning ilmiy faoliyatdan tashqari o'z mavqeini oshirishi, tadbirkorlik va mustaqil bandligi masalasidagi tashabbuslarini rag'batlantirish, kasbiy rivojlanishi hamda o'qish jarayonida ishga joylashish imkoniyatlari bilan bog'liq elementlarni qo'shish;
6. Malakali ilmiy maslahatchilar zanjirini va tadqiqotchilar uchun ko'nikmalardan keng foydalanishni rivojlantiruvchi dasturlarni yaratish va joriy etishga investitsiyaviy zaxiralarni kiritish;

7. OTMlar faqat doktorantura sifatini ta'minlash borasidagi mustaqillikka intilish jihatiga emas, balki qabul kvotasi borasidagi xulosa, nomzodlarni tanlash kriteriyasi va jarayonlari, sifatni ta'minlovchi milliy standartlar doirasida o'quv dasturlarini yaratish va baholash amaliyotlarida ham o'z qarashlariga ega bo'lishi kerak;

8. OTMlar hamkorlik va fanlararo tadqiqotlarni rag'batlantirish bilan tadqiqotchilar kritik jamoasi hamda zahiralarni yetishmasligining oldini olish uchun doktorantura hamkorlik dasturlari shaklida ilmiy rahbarlar komandasini yaratish yo'nalishida ishlashi kerak;

9. Doktorantlarning mobilligi rag'batlantirilishi va qo'llab-quvvatlanishi xalqaro tadqiqotlar borasidagi to'siqlarni bartaraf etadi (biz tajriba sinovlardan o'tgan hamkorlikda rahbarlik qilish shaklini tavsiya etamiz), ma'lum vaqtini xalqaro tashkilotlarda o'tkazish istagi bilan chiqqan tadqiqotchilarni o'zlari moliyalashtirishi sharti bilan qo'llab-quvvatlash tavsiya etiladi;

10. Tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishda qo'llash va tadqiqotchining ishga joylashuvini ta'minlovchi dissertatsiya mavzusi doirasidagi hamkorlik loyihalarini bajarish bilan biznes-sektor bilan aloqalarni mustahkamlash. Shuningdek ishlab chiqarish va sanoat sektorlari ham tadqiqotchiga maslahat beruvi va o'z tajribalarini o'rgatuvchi tarzida ularni o'qitish dasturlari ishtirokchilariga aylanishi maqsadlidir;

11. OTMlar oliy ta'limdan keyingi ta'lim jarayonida tadqiqotchining olgan ko'nikmalari, ishlab chiqarish va sanoat sektorlarida talab etiladigan ko'nikmalar orasidagi uzilishlarni bartaraf etish borasida muntazam ishlashlari talab etiladi. Ushbu uzilishlarni imkon qadar bartaraf etish, yangi elementlarni kiritish yoki oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimiga innovatsion yondashuv bilan mavjud o'quv dasturlariga o'zgartirish kiritish (masalan, European Commission 2011).

12. OTMlar doktorantura doirasida faoliyat ko'rsatayotgan o'z xodimlarining kasbiy o'sishi, ko'nikma va bilimlarni o'zlashtirishlariga, doktorantura xizmatini qo'llab-quvvatlovchi xizmatlar ixtisoslashtirishiga tegishli vositalarni kiritishlari shart.

REFERENCES

1. Bekhman G. *Sovremennoye obshchestvo: obshchestvo riska, informatsionnoye obshchestvo, obshchestvo znaniy* [Modern society: risk society, information society, knowledge society]. Bexman G. *Sovremennoye obshchestvo: obshchestvo riska, informatsionnoye obshchestvo, obshchestvo znaniy*. Moscow, Logos Publ., 2010. 248 p.
2. Ates G., Holländer K., Koltcheva N., Krstic S., Parada F. *Eurodoc Survey I: The First Eurodoc Survey on Doctoral Candidates in Twelve European Countries*. Brussels, Eurodoc, 2011.
3. Byrne J., Jorgensen T., Loukkola T. *Quality Assurance in Doctoral Education – results of the ARDE project*. Brussels, European University Association, 2013.
4. *ENQA. Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG)*. Brussels, EURASHE, 2015.
5. *EUA. Salzburg II recommendations. European Universities Achievements Since 2005 in Implementing the Salzburg Principles*. Brussels, European University Association, 2010a.
6. Clark B.R. *The higher education system. Academic organizations in cross-national perspective*. Berkeley CA, University of California Press, 1983.
7. Van Vught F.A. Combining planning and the market: an analysis of the government strategy towards higher education in the Netherlands. *Higher Education Policy*, 1997, vol. 10, no. 3/4, pp. 211–224.
8. McDaniel O.C. The paradigms of governance in higher education systems. *Higher Education Policy*, 1996, vol. 9, no. 2, pp. 137–158.
9. De Boer H., Leisyte L., Enders J. *The Netherlands – steering from a distance*. In B. Kehm & U. Lanzendorf (Eds.), *Reforming university governance. Changing conditions for research in four European countries*. Bonn, Lemmens, 2006, pp. 29–96.
10. *DFG. Die zukunftsige Foerderung des wissenschaftlichen Nachwuchses durch die DFG. Empfehlungen der Praesidialarbeitsgruppe Nachwuchsfoerderung. Deutsche Forschungsgemeinschaft*, 2000. URL: www.dfg.de/aktuelles_presse/reden_stellungnahmen/2000/index.html.
11. De Boer H., Enders J., Schimank U. *On the way towards new public management? The governance of university systems in England, the Netherlands, Austria and Germany*. In D. Jansen (Ed.), *New forms of governance in research organizations*. Dordrecht, Springer, 2007, pp. 137–152.
12. Kehm B., Lanzendorf U. *Germany – 16 Laender approaches to reform*. In B. Kehm, U. Lanzendorf (Eds.), *Reforming university governance. Changing conditions for research in four European countries*. Bonn, Lemmens, 2006, pp. 135–186.
13. Naqvi, N. H., & Kheyfets, I. (2014). *Uzbekistan: Modernizing Tertiary Education*. Document of the World Bank, 2014. 127 p.
14. *European Commission. The European Qualifications Framework for Lifelong Learning (EQF)*, Luxembourg, Office for Official Publications of the European Communities, 2008. 20 p. DOI: 10.2766/14352
15. *European Commission. Principles for Innovative Doctoral Training*. Brussels, 2011.
16. Jensen, H. T., Aspelin, M., Devinsky, F., Gerlach, J., Heerens, N., Jungwith, W., ... Van Damme, D. (2006). *Quality Culture in European Universities: A Bottom-Up Approach: Report on the Three Rounds of the Quality Culture Project 2002-2006*. Brussels: European University Association. 40 p. http://www.eua.be/fileadmin/user_upload/files/EUA1_documents/Quality_Culture_2002_2003.1150459570109.pdf
17. Surssock A., Smidt H. *Trends 2010: A decade of change in European Higher Education*. Brussels, European University Association, 2010. 128 p.
18. *The International Standard Classification of Education 2011. Comparative Social Research*. UNESCO, 2013. doi: 10.1108/S0195-6310(2013)0000030017
19. Wan Endut W. J., Abdullah M., & Husain, N. (2000). Benchmarking institutions of higher education. *Total Quality Management*, 2000, vol. 11, no. 4-6, pp 796–799. doi: 10.1080/09544120050008237